ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

USMON AZIMNING «DEVORLARI YIQILGAN BOG'» HAMDA «YANA SEVGI HAQIDA SHE'RLAR» ASARLARIDAGI SIMULYAKRA VA BOSHQA POSTMODERN XUSUSIYATLAR IFODASI

Rahimova Sarvinoz Tolibovna,
Osiyo Xalqaro Universiteti tayanch doktoranti

XXI asr adabiyotshunosligida haqiqat va uning badiiy in'ikosi masalasi yangi nazariy yondashuvlar orqali qayta ko'rib chiqilmoqda. Ayniqsa, postmodernizm paradigmasi doirasida real voqelikning mutlaq va barqaror mohiyati inkor etilib, uning o'rnini belgilar, simvollar va diskursiv konstruksiyalar egallashi ta'kidlanadi. Bu jarayon fransuz faylasufi Jan Bodriyar tomonidan ishlab chiqilgan simulyakra nazariyasida o'zining eng mukammal ifodasini topgan[1].

Jan Bodriyarga ko'ra, zamonaviy jamiyatda insonlar endilikda real haqiqat bilan emas, balki uning ko'plab nusxalari, ya'ni simulyakra bilan yashaydi[2]. Bu nusxalar esa asta-sekinlik bilan asl haqiqatni siqib chiqarib, mustaqil mavjudlik kasb etadi. Natijada «giperreallik» - ya'ni realdan ham kuchliroq, lekin aslida sun'iy bo'lgan haqiqat yuzaga keladi.

Mazkur nazariy qarashlar zamonaviy o'zbek she'riyatini, xususan, Usmon Azim ijodini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shoir she'riyatida ishq, makon, vaqt va inson ruhiyati an'anaviy realizm doirasidan chiqib, ko'proq ramziy va konstruktiv xarakter kasb etadi. Shu bois ushbu maqolada shoir ijodida simulyakra va ishq konseptining o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

«Simulyakra» atamasi Jan Bodriyar ijodi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, umumiy ravishda «o'xshashlik» degan ma'noni anglatadi[3]. Dastlab, ushbu atama XVI asrlarda ingliz tiliga kirib kelgan bo'lib, u oliy darajadagi ilohiy tasvir degan mazmunni anglatgan. Keyinchalik, XIX asr oxirlariga kelib, uning ma'nosi sezilarli darajada o'z kuchini yo'qotib, asl nusxaning sifatidan mahrum bo'lgan quyi darajadagi tasvir ma'nosiga yaqinlashdi. J.Uolfreys va hammualliflar bu atama Jan Bodriyarning «reallik effekti» bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydilar.[4] Bu «reallik effekti» ayrim shaxslar va madaniyatlarda fotografiya, kino va boshqa ommaviy axborot vositalari kabi gipermedialar orqali reallik qanday qilib o'rnatilishi va almashtirilishini ifodalaydi[5]. Shunday qilib, *simulacrum* boshqa bir aniq narsa yoki hodisaning obrazi, tasviri yoki nusxasiga nisbatan qo'llanadi[6].

Simulyakra hodisasi zamonaviy adabiyotda haqiqat va tasvir o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishi, belgilar tizimining o'z mustaqil hayotini boshlashi bilan izohlanadi. Bunday holatda badiiy obrazlar endi real hayotni emas, balki uning belgilar orqali yaratilgan nusxasini ifodalaydi. Natijada o'quvchi yoki qahramon haqiqatni emas, balki o'sha belgilar yaratayotgan «yangi haqiqat»ni idrok etadi.

Simulyakraning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u haqiqatni belgilar orqali qayta tiklaydi, ya'ni belgilar o'z manbasidan uzilib, o'zaro ma'no almashuv tizimiga aylanadi[7]. Shuningdek, mifologik va ramziy qatlamning kuchayishi simulyakraning yana bir muhim jihatidir. Mif endilikda real voqelikni emas, balki inson ongidagi ideallashtirilgan tasavvurlarni aks ettiradi. Shu sababli mifologik obraz o'zining asl manba bilan aloqasini yo'qotib, mustaqil timsol sifatida yashaydi.

J.Bodriyarning *Simulacra and Simulation* asarida ta'kidlanishicha, postmodern davrda insonlar haqiqatni emas, balki uning belgilarini iste'mol qiladi[8]. Bel-

[1] Baudrillard, J. Simulacra and Simulation / trans. by Sheila Faria Glaser. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. – P. 164.
[2] Baudrillard, J. Simulacra and Simulation / trans. by Sheila Faria Glaser. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. – P. 167.
[3] Oxford University Press. Oxford English Dictionary. Oxford: Oxford University Press, 2010.
[4] Wolfreys, J., Robbins, R., Womack, K. Key Concepts in Literary Theory. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – P. 254.
[5] Wolfreys Julian, Ruth Robbins and Kenneth Womack. Key Concepts in Literary Theory. 2nd Edition. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – P. 35.
[6] Wolfreys Julian, Ruth Robbins and Kenneth Womack. Key Concepts in Literary Theory. 2nd Edition. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – P. 92.
[7] Kellner Doughlas. Jean Baudrillard: From Marxism to Postmodernism and Beyond. Stanford, CA: Stanford University Press,1989. – P.70.
[8] Baudrillard Jean. Simulacra and simulation (S. F. Glaser, Trans.). University of Michigan Press, 1994. – P. 44.

gilar (simvollar, miflar, orzular) asl manbadan uziladi va o‘z-o‘ziga ishora qiladigan haqiqatning illyuzion nusxalariga aylanadi, ya’ni simulyakra paydo bo‘ladi.

Postmodernizm nazariyasida simulyakra tushunchasi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Jan Bodriyar o‘zining «Simulacra and Simulation» asarida simulyakrani haqiqatning oddiy nusxasi emas, balki asl nusxadan uzilib ketgan va mustaqil mavjudlik kasb etgan belgi sifatida talqin qiladi. U simulyakra rivojlanishining bir necha bosqichlarini ajratadi: dastlab belgi realni aks ettiradi, keyinchalik uni buzib ko‘rsatadi, undan so‘ng realning o‘rnini egallaydi va nihoyat, butunlay realdan uzilib ketadi[1].

Mazkur nazariy qarashlar asosida Usmon Azim she’riyatidagi obrazlar tizimini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shoir ijodida real voqelikdan ko‘ra uning badiiy modellashtirilgan shakllari ustunlik qiladi. Bu esa simulyakra tushunchasining poetik darajada namoyon bo‘lishini anglatadi.

«Devorlari yiqilgan bog‘« she’rida simulyakra va makon talqini. Ushbu she’rda markaziy obraz sifatida «bog‘« tushunchasi ilgari suriladi. Biroq bu bog‘ an’anaviy ma’nodagi real makon emas. Uning devorlari yiqilgan, u tashlandiq va g‘arib holatda tasvirlanadi. Bu esa bog‘ning konkret obyekt sifatidagi mavjudligini inkor etib, uni ramziy va metaforik makonga aylantiradi.

Bog‘ obrazi she’rda bir vaqtning o‘zida bir nechta semantik qatlamni o‘zida mujassam etadi: u inson qalbi, yo‘qolgan qadriyatlar tizimi, buzilgan ijtimoiy tartib yoki hatto metafizik makon sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu ko‘pqatlamlilik postmodernistik matnlarga xos bo‘lgan noaniqlik va ochiq semantika hodisasini yuzaga keltiradi.

Simulyakra nuqtayi nazaridan qaralganda, ushbu bog‘ real makonning aks ettirilishi emas, balki uning ongda qayta yaratilgan modeli hisoblanadi. Bu model xotira, sog‘inch va yo‘qotish hissi orqali shakllangan bo‘lib, u asl haqiqatdan uzilib ketgan. Natijada o‘quvchi real bog‘ni emas, balki uning badiiy konstruksiyasini idrok etadi.

She’rda «bog‘ning tili» borligi haqidagi tasvir ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu antropomorfizm elementi realistik tasvirni buzadi va uni giperreallik darajasiga olib chiqadi. Ya’ni, real hayotda mavjud bo‘lmagan xususiyatlar badiiy haqiqatda tabiiy qabul qilinadi.

«Yana sevgi haqida she’rlar»da ishqning simulativ tabiati. Mazkur she’rda ishq konsepti an’anaviy romantik talqindan tubdan farq qiladi. Shoir ishqni aniq va barqaror tushuncha sifatida emas, balki izlanayotgan, lekin aniqlanmaydigan hodisa sifatida tasvirlaydi. «Ishq qayda?» degan savolning o‘ziyoq ishqning mavjudligi shubha ostiga olinayotganini ko‘rsatadi.

Bu yerda ishq real his-tuyg‘u sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy diskurs orqali shakllangan konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi. She’r davomida ishq turli metaforalar orqali ifodalanadi: u goh shabnam, goh sel, goh do‘zax sifatida tasvirlanadi. Bu esa ishqning yagona mohiyatga ega emasligini, balki belgilar tizimi orqali mavjudligini anglatadi.

Simulyakra nazariyasiga muvofiq, bu holat ishqning asl realligidan uzilib, uning o‘rnini belgilar egallaganini bildiradi. Ya’ni, insonlar ishqni bevosita yashamaydi, balki uning madaniy modelini tajriba qiladi[2].

She’rda ishqning azob va iztirob bilan bog‘lanishi ham uning dramatizatsiya qilingan, ya’ni giperreal shaklini yaratadi. Bu esa real his-tuyg‘udan ko‘ra kuchliroq, lekin aslida badiiy konstruksiya bo‘lgan haqiqatni yuzaga keltiradi.

Har ikkala she’rda ham tashqi voqelikdan ko‘ra ichki kechinmalar ustunlik qiladi. Bog‘ va ishq obrazlari real mavjudlik sifatida emas, balki inson ongida shakllangan subyektiv tasavvurlar sifatida beriladi.

Bu holat postmodernistik adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, unda haqiqat subyektiv va nisbiy xarakter kasb etadi. O‘quvchi matnda tasvirlangan voqelikni mutlaq haqiqat sifatida emas, balki muallif ongining mahsuli sifatida qabul qiladi.

Natijada she’rlar o‘quvchini real voqelikdan uzoqlashtirib, uni badiiy haqiqat, ya’ni giperreallik makoniga olib kiradi. Bu makonda esa real va xayol o‘rtasidagi chegara yo‘qoladi.

Postmodernistik poetika va Usmon Azim uslubi. Usmon Azim she’riyatida postmodernistik xususiyatlar bevosita emas, balki yashirin poetik qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ijodida modernistik iztirob va falsafiylik postmodernistik noaniqlik va ramziylik bilan uyg‘unlashadi.

Shoir obrazlari ko‘pincha aniq referentga ega emas, ular ko‘proq umumlashgan va abstrakt xarakter kasb etadi. Bu esa ularni simulyakra darajasiga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, shoir tilining obrazliligi va metaforik boyligi uning she’riyatiga o‘ziga xos badiiy kuch bag‘ishlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Usmon Azim she’riyatida ishq va makon obrazlari an’anaviy realizm doirasidan chiqib, badiiy konstruksiya sifatida shakllanadi. «Bog‘« va «ishq» tushunchalari o‘zining real mohiyatidan uzoqlashib, simulyakra darajasiga ko‘tariladi.

Shoir she’riyati real va ramziy haqiqat o‘rtasida-

[1] Baudrillard, Jean. Simulacra and simulation (S. F. Glaser, Trans.). University of Michigan Press, 1981). – P. 90.
[2] Baudrillard Jean. The Consumer Society: Myths and Structures. London: Sage, 1998. – P. 88.

gi chegarani yo‘q qiladi hamda o‘quvchini giperrallik makoniga olib kiradi. Bu esa uning ijodini zamonaviy adabiy jarayonlar, xususan, postmodernistik poetika bilan bog‘lash imkonini beradi.

Bundan tashqari, she’rda yashirin semantik qatlamlar va poetik strategiyalar mavjud. «Yana sevgi haqida she’rlar» asarini yanada chuqurroq o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, unda faqatgina ishqning simulativ tabiati emas, balki tilning o‘zi ham mustaqil estetik tizim sifatida faoliyat yuritadi. Bu jihat postmodernistik poetikaning muhim belgilaridan biri bo‘lib, unda til voqelikni aks ettirish vositasi emas, balki uni yaratish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

She’rda ishlatilgan metaforalar va semantik parallelizmlar bir-birini inkor etuvchi va ayni paytda to‘ldiruvchi ma’nolarni yuzaga keltiradi. Masalan, ishqning «shabnam» va «do‘zax» sifatida tasvirlanishi semantik qarama-qarshilikni yuzaga chiqaradi. Bu qarama-qarshilik oddiy poetik kontrast emas, balki ma’noning barqaror emasligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, she’rda ishq tushunchasi o‘zining ontologik asosidan ajralib, ko‘p qatlamli belgi tizimiga aylanadi.

Bu holat Jan Bodriyar ta’riflagan simulyakra jarayonining poetik ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Chunki she’rda ishqning asl mohiyati emas, balki uning turli diskursiv ifodalari ustunlik qiladi. Natijada ishqning «haqiqiy» shakli mavjud emas, balki u faqatgina belgilar orqali idrok etiladi.

Shuningdek, she’rda vaqt kategoriyasi ham an’anaviy chiziqli(linear) shaklda emas, balki fragmentar tarzda namoyon bo‘ladi. «Daqiqa – sinovdir, lahza – sinoat» kabi misralar vaqtni obyektiv o‘lchov sifatida emas, balki subyektiv tajriba sifatida talqin etadi. Bu esa postmodernistik adabiyotda keng tarqalgan «vaqtning subyektivlashuvi» hodisasini ko‘rsatadi[1]. Natijada voqelikning izchil rivoji emas, balki alohida ruhiy holatlar ketma-ketligi yuzaga keladi.

She’rning yana bir e’tiborga molik jihati - undagi ovoz va nutq subyektining noaniqligidir. Lirik «men» aniq individuallikka ega emas, u umumlashgan, hatto ba’zan anonim xarakter kasb etadi. Bu esa subyektning markaziy o‘rni yo‘qolganini bildiradi. Postmodernizmda aynan mana shu holat, ya’ni subyektning «tarqalishi» muhim nazariy masala sifatida qaraladi[2].

Shu bilan birga, she’rda ichki dramatizm kuchli bo‘lsa-da, bu dramatizm an’anaviy konflikt asosida emas, balki semantik taranglik orqali yuzaga keladi. Ya’ni qarama-qarshilik voqealar o‘rtasida emas, balki ma’nolar o‘rtasida mavjud. Bu esa she’rni voqea markazli emas, balki ma’no markazli matnga aylantiradi.

Poetik jihatdan qaralganda, she’rda takror (repetition) va ritmik parallelizm muhim rol o‘ynaydi. «Ishq» so‘zining qayta-qayta ishlatilishi uni oddiy tushunchadan diskursiv markazga aylantiradi. Biroq bu markaz barqaror emas, balki har bir takror bilan yangi ma’no kasb etadi. Natijada matnda semantik siljish yuz beradi, bu esa postmodernistik matnlarning asosiy xususiyatlaridan biridir.

She’rda mavjud yana bir muhim qatlam – bu ekzistensial iztirobdir. Biroq bu iztirob klassik ekzistensializmda bo‘lgani kabi ma’no izlash bilan bog‘liq emas, balki ma’noning o‘zining yo‘qligi bilan bog‘liq. Bu jihat uni modernistik emas, balki postmodernistik ruhga yaqinlashtiradi. Chunki bu yerda muammo ma’noni topa olmaslik emas, balki uning mavjud emasligidir.

Bundan tashqari, she’rda metaforik intensivlik yuqori darajada. Har bir obraz boshqa bir obraz bilan bog‘lanib, murakkab semantik tarmoq hosil qiladi. Bu tarmoq ichida alohida bir markazni aniqlash qiyin, chunki barcha elementlar o‘zaro teng darajada ahamiyatga ega. Bu esa markazsizlashuv (decentralization) hodisasini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, she’rni intertekstual nuqtayi nazardan ham talqin qilish mumkin. Undagi ishq talqini Sharq mumtoz she’riyatidagi ishq konsepti bilan yashirin dialogga kirishadi. Biroq mumtoz an’anada ishq ilohiy va yuksak qadriyat sifatida talqin qilinsa, ushbu she’rda u iztirobli va noaniq hodisaga aylanadi. Bu esa an’anaviy diskursning dekonstruksiyasini anglatadi.

Umuman olganda, «Yana sevgi haqida she’rlar» asarining chuqur tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda faqatgina ishqning badiiy ifodasi emas, balki zamonaviy inson ongining murakkabligi, haqiqatning nisbiyligi va tilning konstruktiv tabiati aks etgan. She’r o‘zining ko‘p qatlamli semantik tuzilishi orqali o‘quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol talqin qiluvchiga aylantiradi.

Shu jihatdan qaralganda, asar nafaqat lirik matn, balki murakkab falsafiy-poetik tizim sifatida baholanishi mumkin. Unda simulacra, hyperreality, sub’ektiv haqiqat va markazsizlashuv kabi tushunchalar bevosita emas, balki poetik shaklda mujassamlangan. Bu esa Usmon Azim she’riyatining zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilishi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

1 David Harvey. The Condition of Postmodernity. Oxford: Blackwell, 1989. – P. 38
2 Foucault Michael. The Archaeology of Knowledge. London: Routledge, 2002. – P. 245.

Rezyume. Maqolada Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog‘» hamda «Yana sevgi haqida she’rlar» asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi haqida ma’lumot beriladi.

Резюме. В статье рассматривается выражение симулякров и других постмодернистских особенностей в произведениях Usmon Azim «Devorlari yiqilgan bog‘» и «Yana sevgi haqida she’rlar».

Resume. This article examines the representation of simulacra and other postmodern features in the works «Devorlari yiqilgan bog‘» and «Yana sevgi haqida she’rlar» by Usmon Azim.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ПОЭТИКА ПОЛЕМИЧЕСКОГО ЖАНРА В ПАМФЛЕТНОЙ ПУБЛИЦИСТИКЕ ДАНИЭЛЯ ДЕФО И ДЖОНАТАНА СВИФТА

Саакян Роза Юрьевна,
базовый докторант Азиатского международного университета

Начало XVIII века в Англии и Ирландии характеризуется глубокими политическими, религиозными и социальными изменениями. Появление парламентской демократии, рост торговли и буржуазной среды, а также усиление роли печати создали благоприятные условия для развития полемической публицистики. Памфлеты, в отличие от книг, были короткими, доступными и быстро распространяемыми, что позволяло оперативно реагировать на актуальные события, вызывать общественное обсуждение и формировать мнение широкой читающей публики. Даниэль Дефо и Джонатан Свифт стали центральными фигурами в формировании дискурса своего времени. Их памфлеты отражают социальные, религиозные и политические вопросы эпохи, однако стратегии и литературные подходы этих авторов различались. Дефо использовал рациональное, логическое построение аргументации, исторические ссылки и моральное убеждение, отражая идеалы Просвещения. Свифт, напротив, предпочитал сатиру, иронию и аллегорическое повествование, вызывая эмоциональное вовлечение читателя и стимулируя его критическое мышление через моральные и этические рассуждения. Таким образом, изучение памфлетной публицистики Дефо и Свифта позволяет понять, как литература выполняла функцию социального инструмента, формирующего раннюю публичную сферу и стимулирующего критическое восприятие информации. Исследование литературы раннего нового времени, особенно памфлетной публицистики Даниэля Дефо и Джонатана Свифта, привлекает значительное внимание ученых благодаря её важной роли в формировании общественного дискурса, социальной критики и литературных инноваций. Памфлеты начала XVIII века служили одновременно политическим инструментом и литературным артефактом, позволяя авторам быстро реагировать на современные события и обращаться к различным аудиториям. Учёные подчеркивают, что понимание риторических и литературных приёмов этих текстов имеет ключевое значение для оценки их социального, политического и этического влияния.

Памфлетная литература Даниэля Дефо изучалась в основном с позиции рациональной аргументации и морального убеждения. Ватт (1957) отмечает вклад Дефо в развитие романа и подчеркивает, что его памфлеты демонстриру-